KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA BILISH JARAYONLARI RIVOJLANISHINING XUSUSIYATLARI

Muxammadjonova X.X.
Qo‘qon davlat pedagogika instituti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: kichik maktab yoshi, maktab, o‘quvchi, psixika, faoliyat, diqqat, idrok, tafakkur, aql sifatlari, psixologik inqirozlar.
Ключевые слова: младший школьный возраст, школа, ученик, психика, деятельность, внимание, восприятие, мышление, качества ума, психологические кризисы.
Key words: elementary school age, school, student, psyche, activity, attention, perception, thinking, qualities of mind, psychological crises.

Резюме:
Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning o‘sishi, uning psixikasining rivojlanishi va ta’lim olish jarayonida bolada bilish jarayonlarining namoyon bo‘lish xususiyatlari, fikr yuritishda yuzaga keladigan psixologik qiyinchiliklar hamda ularning yechimlari, kichik maktab yoshi davrida yuz beradigan psixologik o‘zgarishlar haqida so‘z yuritiladi.
Резюме:
В данной статье рассматривается рост детей младшего школьного возраста, развитие их психики и особенности проявления познавательных процессов у детей в период обучения, психологические трудности, возникающие в мышлении и их решения, психологические изменения, происходящие в период обучения. ведется младший школьный возраст.
Summary:
This article discusses the growth of children of primary school age, the development of their psyche and the characteristics of the manifestation of cognitive processes in children during education, the psychological difficulties that arise in thinking and their solutions, psychological changes that occur during the period of primary school age. is conducted.

Kirish. Bugungi kunda umumi o‘rta ta’lim maktablarda ta’lim sifatini oshirish o‘quvchi o‘rnini ko‘paytirish va o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” degan ezgu g‘oya asosida bu sohada katta ishlar amalga oshirilmoqda. Hatto mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ham bu masalaga alohida e`tibor qaratib, “Maktab bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning

o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak”, deb ta’kidlaydi.

Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta’lim tizimidan, bog‘cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko‘ramiz. Chunki maktabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ta’lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. O’quvchini mustaqil ta’lim olishga o’z-o’zini rivojlantirishga tayyorlash bugungi kun maktabining asosiy vazifasidir. Ta’lim jarayonida o’quvchilarda tafakkurni rivojlantirish uchun fikrlash xususiyatlarini shakllantirish zarur.

Bolaning o‘sishi, uning psixikasi va ongining taraqqiyoti, jamiyat a’zosi sifatida voyaga yetishi muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Kichik maktab yoshi davri 7-11 yosh oralig‘ini o‘z ichiga oladi. Bu davrda bola psixikasida muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘lishini kuzatish mumkin. Bolani birinchi bor maktab ostonasiga qadam qo‘yishi bilan unda bir qator psixologik qiyinchiliklar yuzaga kela boshlaydi. Kichik maktab davrida bolaning birinchi bor maktab ostonasiga qadam qo‘yishi unda o‘quv faoliyatining boshlanishi hisoblanadi. Bu davrni bola uchun qiziqarli, ta’sirchan o‘tkazish talab etiladi. O‘quv faoliyati bolaning bilish jarayonlarining ixtiyoriy va barqaror xususiyatlarini, aql sifatlari va fikr yuritish jarayonlarining rivojlanishida psixologik qiyinchiliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. Odatda psixologik adabiyotlarda keltirilishicha kichik maktab yoshi 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ushbu davrda o‘qish yetakchi faoliyat hisoblanadi. Shu sababli biz kichik maktab yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarining rivojlanishini o‘quv faoliyati bilan bog’liq holda ko‘rib chiqamiz.

Maktab o‘quvchilarining ta’lim olishida bilish jarayonlari, jumladan, tafakkur jarayoni va uning rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ko‘plab taniqli psixolog olimlar bu borada samarali ishlarni amalga oshirganlar.

Rus psixolog olimi L.S.Vigotskiy kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tafakkurining rivojlanishi jarayonida tushunchalarning shakllanishi hamda nutqning o‘sishi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rgangan. L.V.Zankov esa kichik maktab yoshidagi o’quvchilar tafakkurini o’stirish maqsadida o’zining didaktik sistemasini ishlab chiqdi.

Shveytsariyalik psixolog Jan Piajening ko‘p yillik tajribalarining dalolat berishiga qaraganda, ushbu yoshdagi o‘quvchilar narsalarning o‘zgarishsiz qoladigan ba’zi belgilarining doimiyligini darrov anglab ololmaydilar. J.

Piajening mulohazasiga binoan, idrok va tafakkurning qay tarzda rivojlanishi ushbu davr uchun eng asosiy xarakterli xususiyatdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlan‘ich sinf o‘quvchilarda diqqatnining ixtiyorsiz turi yaxshi rivojlangan bo‘lib, ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishda irodaviy zo’r berish bilan boshqarish yaxshi natija bermaydi. Buning asosiy sababi ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Shu bilan birga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ixtiyorli ongli diqqati o‘qish motivlari bilan uzviy bog‘liq holda sekin asta namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonida bolaning ixtiyorsiz diqqatining o‘sishi uchun muhim shart-sharoitlar mavjudd. Boshlang‘ich sinf o‘quv materiallarning yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi o‘quvchida beixtiyor his-tuyg‘ular uyg‘ota oladi. Irodaviy zo‘riqishsiz osongina fan asoslarini egallash imkonini yaratadi. O‘quv materiallarining turli-tumanligi ixtiyorsiz diqqatining to‘planishi markazlashuvi va barqarorligiga ijobiy ta’sir etadi.

Mazkur yoshdagi bolalar o‘z idroklarining aniqligi, ravonligi, sofligi o‘tkirligi bilan boshqa yosh davridagi insonlardan keskin farqlanadi. Ular har bir narsaga berilib, o‘ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Buning sababini ularning oliy nerv faoliyatida birinchi signal sistemasi ustunligi bilan izohlash mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi har qanday obyekt, subyekt va voqealikdagi yangilikni yaqqol idrok qilishga intiladi. Uni atrof muhitning sirli olamini sehrli jozibasi o‘ziga tortadi. Boshlang‘ich sinfidagi o‘quvchilar idrokining salbiy xususiyati obyektlarni bir-biridan farqlashdagi ular ko’pincha o‘rganiladigan materialni noaniq,hatto,noto‘g‘ri idrok qiladilar, buning oqibatida aynan o‘xshash harflar, so‘zlar, narsalar tasviri, shakli fazoviy joylashuvining farqini to‘la tasavvur qila olmaydilar. Ko‘rinib turibdiki boshlang‘ich sinf o’quvchilarda aniq idrok qilish imkoniyati juda chegaralangandir.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tafakkuri boshlang‘ich ta’limning dastlabki davrlarida, asosan, konkret, obrazli xarakterga ega bo’lib, ular o‘zlari bevosita ko‘rayotgan va eshitayotgan, umuman, bevosita idrok qilayotgan narsalari haqida amaliy fikr yuritadilar. Shu sababli bu yoshdagi bolalar o‘zlari hali ko‘rmagan, idrok qilmagan ko‘p hodisa va voqealarning qanday sodir bo‘lishini, ularning o‘zaro bog‘lanishini fikran analiz-sintez qilib, ulardan to‘g‘ri xulosa chiqara olmaydilar. Shuningdek, bu yoshdagi o‘quvchilar o‘zlarining qilayotgan xatti- harakatlari va ishlari qanday oqibatlarga olib borishini va undan nimalar kelib chiqishini ham aniq tasavvur qila olmaydilar.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta’lim jarayonida o‘zini o‘zi nazorat qilish materialni takrorlashda tekshirish esga tushirish, mashq qilishdan

unumli foydalanish zarur. Agar kichik maktab yoshida o‘quvchilarga eslab qolish va eslash usullari o’rgatilmasa ular materiallarni bevosita takrorlashda uzoq vaqt to’xtalib qoladilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xayoli o‘z o‘quv faoliyatining ta’siri, talabi, imkoniyat va shart–sharoitlari orqali tarkib topadi. Bolaning xayoli tevarak-atrof taassurotlari dunyo ajoyibotlari ko‘rsatmalilik, tasviriy san’at asarlarini yetarli darajada aks ettirish bilan vujudga keladi. Obrazlar, suratlar, chizmalar, shartli belgilar, noma’lum narsalarning alomatlari, tabiat manzaralari, fazoviy tasavvurlar jamlanib o‘quvchilarning xayoli paydo bo‘ladi. Tanish obrazlar yaratish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tiklovchi xayol bolaning ruhiy dunyosida alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida bolalarning yorqin aniq, tiniq, yaqqol, tasavvur obrazlari xayol yordamida muayyan voqealikka aylanadi. O‘quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o‘quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki, shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi.

Tahlil va natijalar. O‘qishning dastlabki kunidanoq kichik maktab yoshdagi bolaning o‘sishida qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Ana shular zamirida boladagi psixik kamolotning darajasi va ijobiy xislatlar bilan talablar o‘rtasidagi qarama qarshiliklar yotadi. Talablarning tobora ortishi bolaning psixik jihatdan to‘xtovsiz o‘sishini taqazo etadi va shu berk zanjirning uzluksiz harakati natijasida insonning kamoloti rivojlanishi amalga oshadi.

Boshlang‘ich sinflardagi ta’lim jarayonida o‘quvchilar ba’zan hissiy- yaqqol yoki empirik umumlashtirish usuli qo‘llanadi va bu ish albatta topshiriqning talabiga binoan amalga oshiriladi. Narsa va hodisalarni guruhlarga ajratish va tasniflash lozim bo‘lib qolsa, ko‘pincha shu usullardan ham foydalanish tavsiya qilinadi.

Ta’limning mazmuniga, bilimni egallashga qiziqish o‘quvchilarning o‘z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish xissi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu xis o‘qituvchining rag‘batlantirishi bilan namoyon bo‘ladi va o‘quvchida samaraliroq ishlash mayli ishtiyoqini shakllantiradi Bolada paydo bo‘lgan faxrlanish bu malakalarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Raqobatlashtirish va jazolash me’yorida bo‘lsagina, ularning tarbiyaviy ta’siri ortadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faoliyatini baholash unda o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bu yoshdagi bolalarda mavjud bo‘lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda

muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy xususiyatlarning yuzaga kelish va mustahkamlanish davri deb hisoblash mumkin. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko‘proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir.

Kichik maktab yoshida o‘quvchining asosiy faoliyati o‘qish bn o‘yin faoliyatini birgalikda olib borilishi xam samarali metod xam o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Bu esa o‘z navbatida kasb tanlash uchun zamin tayyorlaydi. Har bir olib boradigan pedagogik mahoratli metodlarimiz orqali o‘quvchilarda dunyoqarash, mustaqil fikrlash, fanlarga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish bilan maqsadlidir. O‘qish uchun qulay sharoitlarda va bolaning aqliy rivojlanishining yetarli darajasida o‘quv faoliyati asosida nazariy ong va tafakkur uchun zarur shart-sharoitlar paydo bo‘ladi. Maktabda, hayotning yangi sharoitida, bu egallangan refleksiv qobiliyatlar bolaga o‘qituvchi va sinfdoshlar bilan munosabatlardagi muammoli vaziyatlarni hal qilishda yaxshi xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Мустақиллигининг йигирма тўққиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқидан."Ўзбекистонда янги бир уйғониш - Учинчи Ренессанс даврига пойдевор қўйилмокда" // https://kun.uz/ news/ 2020/08/31/ shavkat-mirziyoyev-ozbekistonda-yangi-bir-uygonish-uchinchi-renessans-davriga-poydevor-qoyilmoqda

2. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. Toshkent 2016

3. Ibragimova Sh.G., Muxammadjonova X.X. // SCIENTIFIC PREGRESS. Volume 2, 2021. Pp, 501-505.

4. Rahmonova Go‘zal Valiyevn. Kichik maktab yoshida o’quv faoliyatini shakllantirish jarayonlari // Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida iqtisodiy fanlarni o‘qitishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 16.06.2023. 211-214 bet.

5. Umarova Gulhayo Murodiljonovna. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiruvchi texnologiyalar // American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 09, Oct., 2022. pp. 210- 224.

6. Жураева, Ш. С. Мактаб ёшгача болаларда ўзи-ўзи англаш ривожланишнинг психологик омиллари // Молодой ученый. - 2022. - № 22 (417). - С. 675-677. - URL: https:// moluch. ru/ archive/ 417/92418